



**CHOLG‘U SOZLARIDA IJROCHILIK IMKONIYATLARINING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA MUSIQIY ASARLAR IJROSI ORQALI
MUSIQIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH.**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.084>

Samatova Dilnoza Salaidinovna

Samarqand davlat pedagogika instituti

“Musiqi ta’limi” kafedrasi v.b dotsenti

[*dilnozasamatova@gmail.com*](mailto:dilnozasamatova@gmail.com)

Annotatsiya. Cholg‘u sozlarida ijrochilik imkoniyatlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ularning musiqa ta’limi va ijrochilik amaliyotidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilib, unda cholg‘u ijrochiligi jarayonida texnik, ifodaviy va badiiy imkoniyatlarning kengayib borishi, ijrochining individual mahorati hamda musiqiy asarlarni talqin etish orqali musiqiy tafakkurni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, musiqiy asarlarni ijro etish jarayonida tinglovchi va ijrochining estetik didi, musiqiy tafakkuri va ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: cholg‘u sozlari, ijrochilik imkoniyatlari, musiqiy tafakkur, musiqiy asar ijrosi, ijrochilik mahorati, badiiy talqin, musiqa ta’limi, estetik did, ijodiy fikrlash.

Abstract. The article provides a scientific and theoretical analysis of modern development trends in performance capabilities of musical instruments and their significance in music education and performance practice. It examines the expansion of technical, expressive, and artistic possibilities in instrumental performance, the performer’s individual mastery, and the role of musical interpretation in shaping musical thinking. Additionally, the study reveals factors influencing the development of aesthetic taste, musical cognition, and creative thinking of both performers and listeners in the process of performing musical works.

Keywords: musical instruments, performance capabilities, musical thinking, performance of musical works, performing mastery, artistic interpretation, music education, aesthetic taste, creative thinking.

Аннотация. В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются современные тенденции развития исполнительских возможностей музыкальных инструментов и их значение в музыкальном образовании и исполнительской практике. Рассматривается расширение технических, выразительных и художественных возможностей инструментального исполнительства, индивидуальное мастерство

исполнителя, а также формирование музыкального мышления посредством интерпретации музыкальных произведений. Кроме того, раскрываются факторы, влияющие на развитие эстетического вкуса, музыкального мышления и творческого потенциала исполнителя и слушателя в процессе исполнения музыкальных произведений.

Ключевые слова: музыкальные инструменты, исполнительские возможности, музыкальное мышление, исполнение музыкальных произведений, исполнительское мастерство, художественная интерпретация, музыкальное образование, эстетический вкус, творческое мышление.

Kirish. Bugungi kunda milliy madaniyat, musiqa san'ati va xususan cholg'u ijrochiligining rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli mazkur qarorda milliy madaniyat va san'at, xususan musiqa va cholg'u ijrochiligining rivojlanishiga davlat darajasida tizimli yondashuv joriy etilishi belgilangan. [1] Qaror orqali umumta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalarida milliy cholg'ular bo'yicha ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish, musiqa darsliklari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash tizimini yaratish, shuningdek yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va ijodiy tadbirlarni keng ko'lamda tashkil etish kabi chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan. Bu esa yoshlarimizning musiqa madaniyati, estetik didi va musiqa ijro etish mahoratini mustahkamlashga xizmat qiladi va cholg'u ijrochilik sohasida salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. Mazkur qaror musiqa ta'limi va ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish orqali milliy musiqa san'ati va musiqiy tafakkurning shakllanishiga mustahkam poydevor yaratadi.

Musiqa ta'limi oldiga qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Zamonaviy musiqa ta'limida ijrochining faqat texnik jihatdan puxta tayyorlangan bo'lishi bilan birga, uning musiqiy tafakkuri, estetik didi, badiiy idroki va milliy madaniy ongini shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan cholg'u ijrochiligi jarayonida musiqiy asarlar bilan ishlash orqali talabalarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Cholg'u ijrochiligi insoniyat madaniy taraqqiyotining qadimiy qatlamlariga borib taqalib, u tarixan jamiyatning ma'naviy hayoti, urf-odatlar, marosimlari va estetik qarashlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Dastlabki musiqa cholg'ulari mehnat jarayonlari, marosimlar va kundalik turmush ehtiyojlari ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ular murakkab texnik va badiiy imkoniyatlarga ega professional ijro vositalariga aylangan. Urma-zarbli, puflama va torli cholg'ularning ketma-ket rivojlanishi ijrochilik imkoniyatlarining kengayishiga, musiqiy ifoda vositalarining boyishiga zamin yaratgan. [6] O'rta Osiyo hududida shakllangan milliy cholg'ular nay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak va qobuz kabi asboblari o'ziga xos tembr, tovush ranglari va badiiy ifoda imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu cholg'ular orqali yaratilgan musiqiy

asarlar nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va musiqiy tafakkurini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, milliy musiqa merosi namunalarini ijro etish jarayonida talabalarda milliy musiqiy ong va badiiy tafakkur rivojlanadi.

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog‘iy, Darvesh Ali va boshqa allomalarning musiqiy-nazariy qarashlari cholg‘u ijrochiligi va musiqa ta’limining ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etadi. [7] Ular o‘z asarlarida musiqani inson ruhiyati, tafakkuri va estetik tarbiyasi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilganlar. [4] Mazkur ilmiy meros zamonaviy musiqa pedagogikasida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ijrochilik jarayonida musiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalarini asoslashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy musiqa ta’limi amaliyotida musiqiy asarlar ustida ishlash jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi, repertuar tanlashda badiiy-estetik mezonlarga amal qilish, sinf ishlarining samarali olib borilishi talabalarning ijrochilik mahoratini oshirish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurini tizimli rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, murakkab musiqiy shakl va janrlarga mansub asarlarni tahliliy va amaliy asosda o‘zlashtirish talabalarning musiqiy idrokini chuqurlashtiradi, ijrochilik strategiyalarini shakllantiradi.

Metodologiya. Ko‘p yillik pedagogik tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarning fikricha, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini yetuk kadr sifatida tayyorlash jarayonida faqat bitta cholg‘u sozini mukammal egallash yetarli hisoblanmaydi. Shu bois ta’lim jarayonida talabalarga turli cholg‘u sozlarining kelib chiqishi, tuzilishi, tembr xususiyatlari hamda ular orqali ijro etiladigan musiqiy asarlarning badiiy-ijrochilik jihatlari haqida tizimli bilimlar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv talabalarning musiqiy tafakkuri va estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, xalq cholg‘ularining paydo bo‘lishi eramizdan avvalgi o‘n ikki ming yilliklarga borib taqaladi. Dastlab musiqa amaliyotida urma-zarbli cholg‘ular shakllangan bo‘lib, bu holat qadimgi mehnat qo‘shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Keyingi bosqichlarda shovqinli musiqa cholg‘ulari paydo bo‘lib, qarsak va chapaklar yordamida ritmik harakat kuchaytirilgan, natijada musiqaning hissiy-ta’sirchanlik darajasi oshgan. Ayniqsa, ayollar tomonidan ijro etilgan chapak zarblari estetik jihatdan o‘ziga xos ifoda vositasi sifatida namoyon bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan xalq hunarmandchiligi rivoji natijasida qamish va bambuk poyalaridan turli puflama cholg‘ular, jumladan sunray va xushtaklar yaratilgan. Keyinchalik nayning bo‘ylama, ko‘ndalang va ko‘p yo‘lli turlari, shuningdek naysimon xushtaklar, shiqildoqlar va chiltorlar vujudga kelgan. Shu bilan birga torli cholg‘ular — arfa, lira va kifarlarning paydo bo‘lishi cholg‘u ijrochiligining yanada takomillashuviga zamin yaratgan. Mazkur jarayonlar natijasida torli-mizrobli va torli-kamonchali cholg‘ular shakllanib, ular saroy marosimlari va harbiy yurishlarda keng qo‘llanila boshlangan. Qadimgi Sharq madaniy muhitida shakllangan o‘zbek xalq cholg‘ulari asrlar davomida rivojlanib, o‘ziga xos konstruksiyasi, tembri va tovush rangini saqlab qolgan. Nay, sunray, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak va qobuz kabi cholg‘ular ana shu an’anaviy xususiyatlari bilan hozirgi kungacha yetib kelgan.

Eramizdan avvalgi III asrda Parfiya va Grek–Baqtriya davlatlarining, milodiy I asrda esa Kushon davlatining tashkil topishi mintaqada shaharsozlik, madaniyat va san’atning yuksalishiga olib kelgan. Bu davrda musiqa madaniyati va cholg‘u asboblari rivoji uchun qulay sharoit yuzaga kelgan. Marokand, Niso, Tuproqqal’a va Termiz kabi yirik markazlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida musiqa cholg‘ulari tasvirlangan yodgorliklar aniqlangan. IV asrdan boshlab O‘rta Osiyo hududida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, turkiy qabilalarning kirib kelishi va etnik-madaniy uyg‘unlashuv jarayonlari xalq musiqa madaniyatining yanada boyishiga sabab bo‘lgan. XX asrning 30–40-yillarida S.L. Tolstov, V.A. Vyatkin, M.B. Masson rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiyalar natijasida Afrosiyob, Tuproqqal’a va Aytaram hududlaridan topilgan yodgorliklar xalq cholg‘ulari tarixini ilmiy asosda o‘rganishga imkon yaratdi. [5] Musiqa ilmi taraqqiyotida Sharq allomalarining hissasi muhim o‘rin tutadi. Ibn Zayliy, Abdulqodir Marog‘iy, Qutbiddin ash-Sheroziy va Darvesh Ali kabi olimlar o‘z asarlarida cholg‘u asboblari, ularning ijrochilik imkoniyatlari va musiqiy ifoda vositalari haqida qimmatli ilmiy mulohazalar bildirgan. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiyning “Kitob al-musiqa al-kabir” asarida musiqa ijrochiligining vokal va cholg‘u shakllari ilmiy asosda tahlil qilinib [8], cholg‘ularning jamiyat hayotidagi o‘rni yoritilgan. Mazkur tarixiy, nazariy va pedagogik manbalar cholg‘usozlarida ijrochilik imkoniyatlarining rivojlanish tendensiyalarini hamda musiqiy asarlar ijrosi orqali musiqiy tafakkurni shakllantirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashda metodologik poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Natijalar. Cholg‘u ijrochiligi tarixiy taraqqiyot jarayonida avvalo urma-zarbli, keyinchalik puflama va torli cholg‘ular shaklida rivojlanib, zamonaviy ko‘p torli cholg‘ular hamda nayning turli ko‘rinishlari bilan boyib borgan. O‘rta Osiyo hududida shakllangan nay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak va qobuz kabi xalq cholg‘ulari o‘ziga xos tembr, tovush ranglari va ijrochilik imkoniyatlarini asrlar davomida saqlab qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Musiqiy asarlar ustida tizimli va izchil ishlash talabalarda texnik mahorat bilan bir qatorda badiiy tafakkur hamda musiqiy didning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Asarni puxta o‘zlashtirish jarayoni avvalo uning xarakteri, tonalligi, badiiy obrazlar yo‘nalishi, kulminatsion nuqtalari va umumiy shakl tuzilishini anglashdan boshlanishi lozim. Ushbu bosqichda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi va tushuntiruvchi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy tahlil asosida asar mazmuni anglab yetilgach, amaliy ijro bosqichiga o‘tilishi samaradorlikni oshiradi. Musiqa asarlarining texnik murakkabligi bir xil bo‘lmasligi, ayrim bo‘limlari boshqalariga nisbatan ancha murakkab. Bunday holatlarda murakkab qismlarni alohida ajratib, maxsus mashqlar orqali o‘zlashtirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, murakkab bo‘limlarni asarning umumiy badiiy yo‘nalishidan ajratib qo‘ymaslik uchun ularni oldingi va keyingi taktlar bilan bog‘lab ijro etish ijobiy natija berish lozim.

Asarni o‘zlashtirish jarayonida ijrochining texnik va badiiy imkoniyatlariga mos keladigan ijro tezligini tanlash, ijroning barqarorligi va bir maromda bo‘lishini ta’minlash ijro mahoratini oshirishning muhim omillaridir. To‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning ijrochilik salohiyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Cholg‘u ijrochiligi

amaliyotida ayrim musiqa asarlarini konsert yoki yakuniy nazorat darajasiga yetkazmasdan, faqat sinf ishi sifatida o‘zlashtirish pedagogik jihatdan o‘zini oqlaydi. Bunday mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi asarning umumiy mazmunini anglash, unda qo‘llaniladigan ijro ko‘nikmalarini egallash va musiqiy kechinmalarni cholg‘u orqali ifodalashdan iboratdir. Sinf ishlarida vaqtning chegaralanganligi talabalardan musiqa materialini qisqa vaqt ichida o‘zlashtirishni talab etib, yangi asarlar bilan tez-tez tanishib borish, ijrochilik tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. Sinf ishi notaga qarab chalish mashg‘ulotlari bilan uyg‘un holda olib borilganda, talabalarning musiqiy idroki va ijrochilik tajribasi yanada boyiydi. [6]

Sinf ishi jarayonida asarlarni bir necha bor takrorlash orqali talabalar uning mazmuni, tuzilishi, badiiy mohiyati va g‘oyaviy yo‘nalishini chuqurroq anglay boshlaydilar. Repertuar tanlashda asarlarning xarakteri, shakli, ifodaviy vositalari va hissiy boyligiga e‘tibor qaratish, shuningdek talabaning qiziqishlarini inobatga olish musiqiy tafakkur rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sinf ishi uchun tanlangan ayrim asarlarning murakkablik darajasi talabaning real imkoniyatlaridan biroz yuqori bo‘lishi mumkin, biroq ular konsert ijrosi uchun mo‘ljallanmaganini hisobga olgan holda bunday yondashuv pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi. Dastlab mashg‘ulotlar o‘qituvchi nazorati ostida olib borilib, talabaning mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlangan sari o‘qituvchining ishtiroki kamayib borishi ijobiy natija beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, cholg‘u ijrochiligidagi tarixiy va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari talabalarda nafaqat texnik ijrochilik ko‘nikmalarini, balki musiqiy tafakkur, estetik qarashlar va badiiy idrokni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holat ijrochilik faoliyatining faqat amaliy mashg‘ulotlar bilan cheklanmasdan, uning chuqur ma‘naviy-estetik mohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, shashmaqom va boshqa milliy cholg‘u asarlarining ta‘lim jarayoniga kiritilishi talabalarda milliy musiqiy tafakkur, ritmik sezgi va badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirishi aniqlandi. Shashmaqom o‘zining murakkab tuzilishi, chuqur falsafiy mazmuni va badiiy-estetik qudrati bilan milliy musiqa san‘atining eng yuksak namunasidir. Uning shakllanishida qadimgi madaniy qatlamlar “Avesto”, Sug‘diyona madaniyati, zardushtiylik va buddaviylik an‘analari, shuningdek Borbad Marvaziy ijodiy merosi muhim o‘rin tutgani ilmiy manbalarda qayd etilgan. [5] Muhokama jarayonida doira va nog‘ora kabi urma-zarbli cholg‘ularning alohida ruhiy-ta‘sirchan xususiyatlarga ega ekanligi ham e‘tiborga olindi. Doira zarblari insonning ongli idroki bilan bir qatorda ong osti jarayonlariga va oliy asab faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar shashmaqom ijrosida doira usullarining muhim o‘rin egallashini ilmiy jihatdan asoslaydi. Natijada shashmaqomdagi badiiy-ta‘sirchanlik vokal va cholg‘u ijrosi bilan bir qatorda zarb-usullarning ruhiy muvozanatni ta‘minlovchi imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekani aniqlanadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir qator mamlakatlarda an‘anaviy musiqadan bolalar va yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, milliy o‘zaklar

asosida tarbiyalash va ruhiy barqarorlikni mustahkamlash vositasi sifatida samarali foydalanilmoqda. Bu jarayonda shashmaqomning terapevtik xususiyatlari hissiy holatni barqarorlashtirish, xotirani kuchaytirish va tafakkurni faollashtirish imkoniyatlari jahon musiqashunoslari e‘tiborini tobora ko‘proq jalb etayotgani kuzatildi. Cholg‘u ijrochiligida milliy musiqiy meros, xususan shashmaqom namunalaridan samarali foydalanish talabalarning ijrochilik mahorati bilan bir qatorda musiqiy tafakkuri, estetik didi va ruhiy barqarorligini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy-nazariy qarashlar bilan to‘liq uyg‘unlashadi va tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. [7]

Xulosa. Mazkur tadqiqotda cholg‘u ijrochiligida rivojlanish tendensiyalari hamda musiqiy asarlar ijrosi orqali talabalarning musiqiy tafakkurini shakllantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari cholg‘u ijrochiligi jarayoni faqat texnik mahoratni rivojlantirish bilan cheklanmasdan, balki talabalarda estetik did, badiiy tafakkur va milliy musiqiy ongini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Aniqlanishicha, cholg‘u ijrochiligi tarixan urma-zarbli, puflama va torli cholg‘ular asosida shakllanib, zamonaviy ko‘p torli cholg‘ular va nay turlari bilan boyigan. O‘rta Osiyo hududida keng tarqalgan nay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak va qobuz kabi cholg‘ularning o‘ziga xos tembr va tovush ranglari musiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim estetik vosita bo‘lib xizmat qilishi asoslab berildi. Tadqiqot davomida musiqiy asarlar ustida tizimli va maqsadli ishlash talabalarning ijrochilik strategiyalarini, texnik ko‘nikmalarini hamda badiiy tafakkurini uyg‘un rivojlantirishga imkon berishi aniqlandi. Asarning mazmuni, shakli, kulminatsiyasi va badiiy obrazlarini chuqur anglab ijro etish musiqiy idrokni faollashtirib, ijrochilik madaniyatini yuksaltiradi. Cholg‘u ijrochiligida musiqiy asarlar bilan ishlashning to‘g‘ri tashkil etilishi, sinf ishlari va repertuar tanlashda badiiy-estetik mezonlarga amal qilish talabalarning musiqiy tafakkuri va ijrochilik mahoratini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari musiqa ta’limi jarayonini takomillashtirish, milliy musiqiy merosni o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish va bo‘lajak musiqa mutaxassislarini tayyorlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022 y)
2. Akbarov I. “Musika lug‘ati”., Toshkent “O‘qituvchi”. 1997 yil.
3. Qudratov I. Odilov A. ”Cholg‘u asboblari ijrochilik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish”., Uslubiy qo‘llanma., SamDU., 2015 yil.
4. Rahimov Sh., Saidov A. “Sharq allomalarining musiqiy qarashlari”., “Musika nashriyoti”., Toshkent., 2011 yil.
5. Madrimov B.X. “O‘zbek musiqa tarixi”., Toshkent., «Barkamol fayz media»., 2018 yil.

6. Samatova D.S. “Cholg‘u ijrochiligi” Samarqand., 2024 yil
7. Saidiy S. “Moziydan sado”. “Tarbiya” jurnali.-T.,2007 yil. 2-son.
8. Odilov A. “Uzbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”.-T., 1995 yil.
9. <https://uz.wikipedia.org/>